

МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ



Илимий-методикалық журнал

2023

6/3-сан

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис

6/3-сан 2023

декабрь

Шолкемлестириүшилер:

**Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириү Министрлиги,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы**

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Маңсет АЙЫМБЕТОВ	Лобар МУХТОРОВА
Нағмет АЙЫМБЕТОВ	Камаладин МАТЯКУБОВ
Адхамжон АБДУРАШИТОВ	Раъно ОРИПОВА
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Бахтиёр РАХИМОВ
Ерполат АЛЛАМБЕРГЕНОВ	Фуркат РАЖАБОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Сайёра РАХМОНОВА
Дилшодхұја АЙТБАЕВ	Арзы ПАЗЫЛОВ
Интизар АБДИРИМОВА	Барлықбай ПРЕНОВ
Мавлюда АЧИЛОВА	Дилшода САПАРБАЕВА
Нурийдин АЧИЛОВ	Феруза САПАЕВА
Тұлкин АЛЛАЁРОВ	Зайниддин САНАҚҰЛОВ
Мариғжон АХМЕДОВ	Қажхор ТУРСУНОВ
Умида БАХАДИРОВА	Амина ТЕМИРБЕКОВА
Фарҳад БАБАШЕВ	Нурзода ТОШЕВА
Ботир БОЙМЕТОВ	Куанишбек ТУРЕКЕЕВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА	Гулноз ТУРАЕВА
Шахло БОТИРОВА	Гулмира ТОЖИБОЕВА
Маманазар ДЖУМАЕВ	Тажибай УТЕБАЕВ
Аскәр ДЖУМАШЕВ	Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Алишер ЖУМАНОВ	Амангелди КАМАЛОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА	Дилбар ҚАРШИЕВА
Холбой ИБРАГИМОВ	Воҳид КАРАЕВ
Умида ИБРАГИМОВА	Дилбар ҚОДИРОВА
Лола ИСРОИЛОВА	Ризамат ШОДИЕВ
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Абдушукур ШОФҚОРОВ
Аскәrbай НИЯЗОВ	Дилфузә ШАББАЗОВА
Сабит НУРЖАНОВ	Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Захия НАРИМБЕТОВА	Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Мехри НАРБАШЕВА	Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Улфат МАҲКАМОВ	Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Уролбой МИРСАНОВ	Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Нуржан МАТЧАНОВ	Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
Сафо МАТЧОН	Гулрухсөр ЭРГАШЕВА
Шукурилло МАРДОНОВ	Гавхар ЭШЧАНОВА
Шахсанам МАТУПАЕВА	Қонысбай ЮСУПОВ



Ikromov X. Axborot tizimlari va ma'lumotlar bazasini boshqarish sohasida o'qitish usullari	361
Усманова К. Таълим тизимига медиатехнологияларни жорий этиш ҳамда медиатайлимнинг вужудга келишига доир фикрлар таҳлили	368
Xodjibolayeva N. Al-Farg'oniy va Abu Rayhon Beruniyning tabiiy-ilmiy qarashlari asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirish masalalari	372
Sayidova M. X. Raqamli texnologiyalarni o'qitishning uslubiy va texnologik ta'minoti	378
Матгзиев Х.М. Роль математическое моделирование при решении механических задач	386
Rasulova T. Mathematical modeling of information technologies and processes, teaching methodology, methodology for creation of training projects	392
Ruzmetova S.T. Advantages of teaching english online and ways of conducting online classes	397

БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТЭРБИЯ

Misirova N. Kasbiy-ijodiy faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining individual-shaxsiy sifatlari	403
Botiraliyeva M. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarining AKT kompetentligini rivojlantirish modeli	413
Mirazimova M. Oiladagi sog'lom va ma'naviy muhitning bola tarbiyasiga ta'siri	420
Xusenova S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch ma'naviy kompetentsiyalarni shakllantirishda "Tarbiya" fanining ahamiyati	424
Alimqulova R. Nutq madaniyati va uning boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy faoliyatidagi o'mi	429
Atakov I. Umumiy o'rta ta'lif maktablarida "Tarbiya" fani o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuv	436
Berdiyeva H. Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	446
Ergasheva O. O'quvchi - qizlarda milliy fazilatlarni rivojlantirishda ma'naviy qadriyatlarning o'rnı	455
Choriyeva D., Abdiyeva Sh. Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida bilimlarini rivojlantiruvchi o'yinlar	461
Xayitov L. Bo'lajak defektoglarning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish	466
Urakova Sh.K. "Malaka oshirish kurslari tinglovchilarida kreativlik kompetentligini rivojlantirish (Umumiy o'rta ta'lif maktablari o'qituvchilari faoliyatini misoldila)	472
Maqsudov U., Abdullayev R. "Tarbiya" fanini o'qitishda O'rta Osiyo mutafakkirlarining tarbiya haqidagi fikrlarini o'rganishning nazariy asoslari	480
Ibragimova Sh. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsga nisbatan mas'uliyatli munosabatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar va tamoyillar	486
Yakubova M. Maktabgacha ta'lif tashkilotlaridagi tarbiyachilarining kasbiy va shaxsiy sifatlari	496
Qosimova M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikrlashga o'rgatishda o'rta arifmetik qiyamatni topishga doir masalalarining o'rnı	500
Комолова И. Олий таълим муассасаси талабаларида арт-педагогик тизимини таркиб топтиришнинг педагогик жиҳатларини такомиллаштириш	507
Matupayeva Sh.Z. Sharq mutafakkirlarining imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lif-tarbiyasi haqida qarashlari	513
Eshmanova N.N. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining odob-axloq ko'nikmalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish	517
Каримжанова Да.А. Тараққиёт стратегияси асосида мактабгача таълим ташкilotlari педагог ходимларини тайёрлашнинг назарий масалалари	522
Шербутаева Ш. У. Проведения занятий в дошкольных образовательных организациях по ознакомлению дошкольников с природой	527
Халбаева Г. Механизмы совершенствования процесса подготовки детей к школе	531



BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING ODOB-AXLOQ KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Eshmanova N.N.

*ChDPU Boshlang'ich ta'lif metodikasi kafedrası
katta oqituvchisi*

Tayanch so'zlar: odob-axloq ko'nikmasi, pedagog metodi, ta'lif, siyosat, nashrlar.

Ключевые слова: навыки этикета, метод педагога, образование, политика, публикации.

Key words: etiquette skills, teacher's method, education, politics, publications.

Bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy sohada amalga oshirilayotgan keng islohotlar vatan taqdiri, xalq ravnaqi, mustaqil yurtning kelajakdag'i boshqaruvchilar-yangi avlod tarbiyasiga qaratilmoxda. Yurtimizda azal-azaldan umuminsoniy va o'zbekona qadriyatlarni, milliy urf-odat va an'analarni ulug'lash, ularga chuqurroq nazar tashlab kelajak avlodga yetkazish uchun e'tibor qaratib kelingan. Mustaqil Vatanimizga har tomonlama yetuk, mukammal, axloqiy pok, yuksak ma'naviy xislatlarga ega, iymon-e'tiqodi butun, o'z xalqi, o'z ona Vataniga fidoiy, barkamol insonlarni tarbiyalash davlat siyosatida ustuvor masalalardan biri sifatida qaralmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev kelajak yosh avlod tarbiyasiga katta ahamiyat berib: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" deb ta'kidlaydilar.

Dunyo bo'yicha rivojlangan mamlakatlarda yoshlarni ta'lif-tarbiyasiga katta e'tibor berilmoqda va ushbu yo'naliishlar bo'yicha davlat dasturlari qabul qilinmoqda. Bu borada respublikamizda uzlusiz ta'lif tizimida tub islohotlar olib borilmoqda va ularning mazmun-mohiyatini kelajagimiz bo'lgan yosh



avlodni intellektual salohiyatli, ma’naviy yetuk, jismonan baquvvat, innovatsion rivojlangan barkamol shaxs qilib tarbiyalash masalalarini hal qilish tashkil etadi. Ularda erishilgan natijalar kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar tafakkur qamrovini yuksaltirishda muhim didaktik asos bo‘lib, ular orqali boshlang‘ich ta’lim mazmuni zamonaviy talablar asosida shakllantirishga erishilmoqda. Shu bilan birga hozirda jamiyat taraqqiyoti darajasi zamonaviy ta’limda ilm-fan va texnika-texnologiyalarning ilg‘or yutuqlaridan foydalanishni ham taqozo etmoqda.

Boshlang‘ich ta’limda darsning noan’anaviy tarzda tashkil qilinishi o‘qituvchi va o‘quvchining samimiy munosabati, kichik guruh a’zolarining faolligi, jamoa bo‘lib ishlashga o‘rgatish, bolada guruh ishtirokchisi sifatida tashabbuskorlik, aniq maqsadga intilish, ijodkorlik, o‘z fikrini bayon qilish madaniyati, buniyodkorlik sifatlarini shakllantiradi. Bu jarayon, albatta, o‘qituvchidan darsni rejalashtirish va loyihalashtirish mahoratini, barcha o‘quvchilarning bir xil ishslashlariga erishish, kreativlik, kommunikativlik, tashkilotchilik, perseptivlik qobiliyatlarini rivojlantirishni talab etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirish masalalari yuzasidan olib borgan izlanishlarimiz natijalari ta’lim jarayonida muayyan fanlarni o‘qitishda ma’lum bir ta’lim yo‘nalishini amalga oshirishda innovatsion metod va texnologiyalarni ishlab chiqib, ulardan ma’lum yo‘nalishlarda samarali foydalanishga mo‘ljallangan ijodiy faoliyati muhitini yaratib, boshlang‘ich ta’limni optimal tashkil etish kerakligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi bilan uzlusiz ta’lim tizimining asosi yaratildi. Binobarin, “Ta’lim to‘g‘risid”gi Qonunning 26-moddasida o‘qitish jarayoniga ilg‘or, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng ko‘lamda tatbiq etish barcha turdagи ta’lim muassasalari oldidagi eng dolzarb vazifalardan biri ekanligi ta’kidlanadi.

Ma’lumki, qiziqish o‘quvchilarning emotsiyonal bezagi biror buyum, biror faoliyatni tanlash munosabati va yo‘nalishidir. Shunga ko‘ra, psixologiyada qiziqishning ikki turi o‘quvchilarning ta’lim jarayonida aniqlanadi: birinchisi, bevosita qiziqish, ikkinchisi esa bilvosita qizikishdir. Har bir o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarida o‘z faniga nisbatan bilvosita qiziqishni tarkib toptirishga harakat qiladi. Qiziqishlar orqali o‘quvchilarda ta’limga faol munosabat namoyon bo‘ladi.

Ta’lim maqsadlari o‘quvchini faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirib olishga emas, aksincha, bola bilimni qidirib topishiga erishish, o‘z xulosasini chiqara olishga o‘rgatish, tanqidiy munosabat bildira olishiga erishish bugungi kunda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning bosh maqsadiga



aylanmoqda. Maktabda o‘qitiladigan har bir fan, har bir mavzu o‘quvchi ma’naviy qiyofasining boyishiga hissa qo‘shib boradi. Ayniqsa, xalq og‘zaki ijodi namunalari bolalarga kuchli ma’naviy ta’sir ko‘rsatish imkoniga ega. Tez aytish, maqollar, ertaklar tajribada sinalgan, minglab yillar davomida jamiyat a’ zolarini eng yaxshi fazilatlar sohibiga aylantirgan tarbiya vositalari hisoblanadi. Tez aytish, maqollar, xalq ertaklari mazmun jihatidan boy, shakl jihatidan xilma-xildir. Ularning paydo bo‘lishi ham uzoq o‘tmishdan boshlanib, hozirgi kungacha davom etib kelmoqda. Xalqning umumiyligi dahosi mahsuli bo‘lgan folklor materiallari aynan bir xalq, bir millat tomonidan yaratilsa ham, umuminsoniy qiymati kuchli hisoblanadi.

Shuning uchun ham tez aytishda, maqollarda, ertaklarda turli xalqlarda yaratilgan, mazmun jihatidan bir xil, yoki bir-biriga yaqin bo‘lgan materiallar uchrab turadi. Bu hol xalq og‘zaki ijodini umumbashariy ta’siriga ega ekanligidan dalolat beradi. Tez aytishlar, maqollar, ertaklar mazmuniga qarab, yoshlarni tarbiyalashni turli yo‘nalishlarini, aqliy, axloqiy, jismoniy, ruhiy, estetik, mehnatsevarlik va boshqa xususiyatlarni tarkib toptirishga qaratilgan bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf tarbiya darslarida xalq og‘zaki ijodidan bolalarga topishmoq aytish, uning javobini topish va xulosalar chiqarish, o‘quvchilarini faqatgina o‘sha aytilayotgan topishmoqning javobini topish uchun harakat qilishidagina emas, balki bolalar o‘rtasida bir-biriga mehr, do‘stlik, o‘rtoqlik, hamjihat bo‘lib harakat qilish kerakligi haqida fikrlar bildirilgan. Tarbiya darslarida xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda boshlang‘ich sinf pedagog-tarbiyachilari tomonidan bolalarni tarbiyasida amalga oshiriladigan ishlarning mazmun-mohiyati va yo‘nalishiga ko‘ra rejalashtirish va tashkil qilish funksiyalari quyidagi jarayonlarda amalga oshiriladi:

- maqsadi, vazifasi va shakliga ko‘ra xalq og‘zaki ijodi turlaridan foydalanish uchun mashg‘ulot va uchrashuv, suhbat jarayonlarini rejalashtirish va loyihalashtirish;
- modellashtirish, ya’ni tashkil qilinadigan pedagogik jarayonlarda xalq og‘zaki ijodidan foydalanishda o‘quvchilar uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish va ularning imkoniyatlarini inobatga olgan holda faolligini ta’minlash bo‘yicha vazifalarni oldindan belgilash;
- yaratilgan shart-sharoitlar va mayjud vaziyatlarga ko‘ra tarbiya darslarini tashkil etilishini nazorat qilish, ibrat, namuna ko‘rsatish, tahlil qilish va obyektiv baholash asosida rag‘batlantirish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma’naviy muhitni shakllantirish, odob axloq tushunchalarini yanada kengroq tatbiq etish va ushbu qimmatli fazilatlar



асосда тарбиялашда боаллар nashrining ham o'rni muhimdir. Bugungi kunda afsuski ushbu masalaga chuqurroq yondashilmayapti. Zero, bolalar psixologiyasida ularga har taraflama ijobiy ta'sir etish, voqealar asosida namunalar keltirish orqali namoyon bo'ladi. Bolalar nashrlari esa bu borada ayni muddao va foydali hisoblanadi. Jurnal va kitoblardan o'rin egallagan xilma xil suratlar, animatsion qiyofalar, ibratli voqealar, shuningdek, she'r va maqollar ham bolaning tafakkuri yuksalishida muhim vositadir.

"Tong yulduzi", "G'uncha", "Gulxan", "Klass" singari va boshqa qator bolalar nashrlari sahifalarida boshlang'ich sinf o'quvchilar uchun foydali va qiziqarli ma'lumotlar o'rin egallagan. Maktablarda bolalar nashrini o'rin egallashi har bir o'quvchiga yetkazib berilishi va shular asosida ham dars mazmunini kengaytirish albatta faqat ijobiy tomonga xizmat qiladi. Afsuski, bugungi kunda ushbu masala bo'shliqligicha qolmoqda. O'quvchilar ham elektron platformalarni ma'qul ko'rishmoqda. Albatta, internet savodxonligi bolaning intellektini oshirishda, zamonaviy texnologiyalar bilan ishslash salohiyatini boyitishda asosiy vositadir, ammo bolalar uchun, aynan, ularning yoshiga, hissiyotlariga va qiziqishlariga mos olib boriladgan nashrlar ham ularning ma'naviy yuksalishida muhim manbadir.

Milliy pedagogik tajribamizda o'quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirish bo'yicha o'ziga xos tajribalar mavjud. Bunday tajribalar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirishning yangicha yondashuvlari, vositalari va shakllarini ishlab chiqish taqozo etiladi. Chunki jamiyatimizning hozirgi innovatsion rivojlanish jarayoni boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy jihatdan faollashtirishni taqozo etadi. Bundan tashqari, bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilari nafaqat savodxonlik, bilim, ko'nikma va malakalarni egallamoqda, balki ular ta'limning keyingi bosqichlariga ham tayyorlanmoqda. Negaki, mamlakatimizda boshlang'ich sinf o'quvchilari umumiyl o'rta, maxsus ta'lim muassasalari va Prezident maktablarida o'qish imkoniyatlariga ega. Bu hol boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy fazilatlari yuksak darajada bo'lishini taqozo etadi.

Ayni paytda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirish bo'yicha xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimlarining tajribalarini ham o'rganish taqozo etiladi. Bu masala bevosita umuminsoniy qadriyatlar va demokratik jamiyat ustuvorligi sharoitida muhimdir. Shu sababli bunday tajribalarni o'rganish va umumlashtirish kutilgan samarani beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirish muammosini tadqiq etishda muayyan tizimga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Biz mazkur tizimni quyidagicha tasavvur qilamiz:



1) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirishning mazmuni va unda “Tarbiya” o‘quv fani asosida nazariy jihatdan shakllantirish asoslarini ishlab chiqish;

2) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirishning amaliy va innovatsion tizimlarini ishlab chiqish, ulardan foydalanish shakllarini belgilash;

3) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy fazilatlarning shakllanganlik ko‘rsatkichlarini aniqlash indikatorlarini yaratish;

4) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirish tizimining amaliy samaradorlik natijalarini aniqlash.

5) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviy va ma’rifiy bilimini shakllantirishda bolalar nashrlari bilan ishlashni yo‘lga qo‘yish.

Bunday yondashuv qo‘yilayotgan muammoni nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. Haydarov M. “Xalq og‘zaki ijodi na’munalarida tarbiya masalalari”, Fan,2004.
2. Jabborova O., Umarova Z. Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi. – T., 2022.
3. Bobaqlulova D.M. Umumiy pedagogika (o‘quv qo‘llanma). –T., 2021.
4. Xasanova G.I. “Ta’lim jarayonida dasturlashtirilgan o‘qitish texnologiyasidan foydalanishning afzalliliklari” Jizzax: 2020.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining odob axloq ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ijtimoiy psixologik xususiyatlar, didaktik usul va metodlardan foydalanish haqida ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan. Shuningdek, pedagoglar tomonidan o‘quvchilar intellektual salohiyati va ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish borasida bolalar nashrlaridan foydalanish usuli tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье даны научно-практические рекомендации по использованию важных социально-психологических особенностей, дидактических приемов и методов в формировании навыков этикета у младших школьников. Также проанализирован метод использования педагогами детских изданий по развитию интеллектуального потенциала и творческих возможностей учащихся.

RESUME

This article provides scientific and practical recommendations on the use of important socio-psychological features, didactic techniques and methods in the formation of etiquette skills in younger schoolchildren. The method of teachers’ use of children’s publications for the development of intellectual potential and creative abilities of students is also analyzed.